



**BUYRUQ**

2022y. «30» 03

TOSHKENT

No 238 -L

**“Yoshlar o'rtaida kitobxonlik  
madaniyatini oshirish to'g'risida”**

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan to'rtinchchi tashabbusi doirasida “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati tizimida 2022-yil yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturining 23-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida buyuraman:


1. “O'zbekiston temir yo'llari” AJ tizimidagi barcha boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalarda “Zukko kitobxon-2022” ko'rik-tanlovi o'tkazilsin.
2. “Zukko kitobxon-2022” ko'rik-tanlovi o'tkazilsh bo'yicha ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga, tanlov Nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Ishchi guruh tomonidan “Zukko kitobxon-2022” ko'rik-tanlovida o'qilishi lozim bo'lган kitoblar ro'yxati tuzilsin hamda tanlovda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlasin.
4. Tizim tasarrufidagi barcha boshqarma, korxona, tashkilot, muassasalar rahbarlari va joylardagi yoshlar yetakchilari:
  - joylarda tanloving saralash bosqichi sentabr oyiga qadar o'tkazilsin;
  - saralash bosqichi g'olib korxona rahbarining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlansin hamda yakuniy bosqichda ishtiroki ta'minlansin;
5. “Zukko kitobxon-2022” ko'rik-tanlovinining yakuniy bosqichi oktabr oyida saralash bosqichi g'oliblari ishtirokida o'tkazilsin:
  - Yetakchilar Kengashi (Sadriddinov) o'z muddatida tanloving yakuniy bosqichini o'tkazishni ta'minlasin;
  - Ishlarni boshqarish direksiysi (Inogamov) tomonidan “Zukko kitobxon-2022” ko'rik-tanlovi yakuniy bosqichi g'oliblarini belgilangan tartibda rag'batlantirilishini ta'minlansin.
6. “Sihatgoh” sanatoriy-profilaktoriysi (Matibayev) tomonidan tanlov ishtirokchilari turar joy va oziq-ovqat bilan ta'minlansin.
7. Xizmat safari bilan bog'liq barcha xarajatlar tegishli korxona hisobidan amalga oshirilsin.

8. Moliya boshqarmasi (Xodjayev) tasdiqlangan dastur asosida mablag‘larni moliyalashtirishni ta’minlasin.

9. Axborot-tahliliy media markaziga (Baltabayev) tanlov doirasida amalga oshirilgan ishlar OAVda keng yoritilishi tavsiya etilsin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish boshqaruvi raisi o‘rnibosari v.b. U.N.Tursunkulovga yuklatilsin.

**Boshqaruv raisi v.b.**



**X.N.Xasilov**

“O‘zbekiston temir yo‘llari”  
aksiyadorlik jamiyatining  
2022-yil “30” 03  
238-4 sonli buyrug‘iga  
1-ilova

### **Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi**

- |  |  |
|--|--|
| U.N.Tursunkulov                              | - Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b., ishchi guruh raisi   |
| O.A.Sadiddinov                               | - Yetakchilar Kengashi raisi v.b., ishchi guruh raisi o‘rinbosari  |
| M.X.Rozimetov                                | - O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining raisi o‘rinbosari (kelishilgan), ishchi guruh a’zosi |
| V.X.To‘xtayev                                | - Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruh a’zosi   |
| R.A.Inogamov                                 | - Ishlarni boshqarish direksiyasi boshlig‘i, ishchi guruh a’zosi   |
| M.M.Merganov                                 | - Markaziy kasaba uyushma kutubxonasi direktori, ishchi guruh a’zosi (kelishilgan)   |
| Barcha korxona rahbarlari*                   | - O‘z hududi bo‘yicha ishchi guruh a’zosi  |
| Hududiy kasaba uyushma qo‘mitalari raislari* | - O‘z hududi bo‘yicha ishchi guruh a’zosi  |

\*Izoh: Barcha boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar

“O‘zbekiston temir yo‘llari”  
aksiyadorlik jamiyatining  
2022-yil “30” 03  
138-ke-sonli buyrug‘iga  
2-ilova

## “Zukko kitobxon-2022” ko‘rik-tanloving NIZOMI

### I. Umumiy qoidalalar:

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodkorlarning mehnatini munosib rag‘batlantirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvarda imzolangan “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori ana shu ezgu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarishga qaratilganligi bilan g‘oyatda ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Yoshlari Forumi”da belgilab bergen topshiriqlari hamda “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatni tizimida 2022-yil yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturining 23-bandi ijrosini ta’minalash hamda yosh temiryo‘lchilar o‘rtasida kitob mutoalasi, kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati va ma’naviy saviyasini yuksaltirish maqsadida tizim tasarrufidagi barcha korxona, tashkilot va muassasalarda “Zukko kitobxon-2022” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.

### II. Ko‘rik-tanlov o‘tkazilishi:

Ko‘rik-tanlov mazkur Nizomga asosan yetakchilar Kengashi, O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi, Markaziy kasaba uyushma kutubxonasi hamkorligida ikki bosqichda o‘tkaziladi.

**Birinchi bosqich** – sentabr oyiga qadar tizim tasarrufidagi barcha boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalarda yosh temiryo‘lchilar o‘rtasida o‘tkaziladi.

**Ikkinchi bosqich** – oktabr oyida 1-bosqichda g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida o‘tkaziladi.

### III. Ko‘rik-tanloving asosiy maqsad va vazifalari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash hamda yosh temiryo‘lchilar o‘rtasida kitob mutoalasi, kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati va ma’naviy saviyasini yuksaltirish;

- temiryo‘lchilar o‘rtasida ilm-ma’rifatni yuksaltirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, kitob bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar mohiyatini yoshlar ongiga yetkazish;

- ona-Vatanga mehr-muhabbat, kelajakka ishonch, temiryo‘lchilar o‘rtasida do‘slikni tarannum etish, burch va mas’uliyat tushunchalarini targ‘ib etish, muqaddas tariximiz, an’analarimiz va urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

- kitobxonlik madaniyati – ya’ni o‘zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma’naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o‘zi uchun zarurini o‘qish;

- kitob ustida ishslash malakasini o‘rganib olish va unga amal qilish, kitobni mustaqil o‘qiy olish hamda o‘qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qilish, o‘qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish, muntazam ravishda o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

- kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to‘g‘ri foydalana bilish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o‘rganish;

- o‘qigan kitobni do‘sstar bilan o‘rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o‘qib chiqishiga erishish maqsadida do‘sstar ishtirokida intellektual o‘yinlar tashkil etish.

#### **IV. Umumiyl tushunchalar:**

- tanlovda ixtiyoriy holda temiryo‘lchilar o‘zaro musobaqa ruhida bellashadilar;

- ishtirokchilarning tanlovga puxta tayyorgarlik ko‘rganligi muhim ahamiyatga ega;

- tanlov 4 ta shartdan iborat bo‘ladi;

- har bir shart uchun ajratilgan vaqtga e’tibor beriladi;

- hakamlar hay’ati har bir shartni belgilangan ballar asosida baholab boradi;

- ishtirokchilarning shartlarga javob berish jarayonida belgilangan vaqtga qat’iy amal qilishlari shart.

#### **V. Ko‘rik-tanlov shartlari:**

<b>Nº</b>	<b>Shartlar</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Belgilangan vaqt</b>	<b>Berilgan baho</b>
1.	Badiiy kitoblar bilimdoni	Bu shartda ishtirokchi 10 ta konvertdan birini tanlaydi. Konvert ichida badiiy asardan parchani o‘qib, ishtirokchi asarning nomini, muallifini, so‘ngra asar mazmun-mohiyatini, g‘oyasi va ahamiyatini qisqa lo‘nda sharhlab berish talab etiladi. Asarning nomi yoki uning muallifi to‘g‘ri aytilmasa, ishtirokchi baholanmaydi.	5 daqiqa	10 ball

2.	Buyuk ajdodlar merosi	Bu shartda ishtirokchi 10 ta konvertdan birini tanlaydi. Ishtirokchi tanlagan konvertda buyuk ajdodlarimizdan biri to‘g‘risida ma’lumot berilishi so‘ralgan. Ishtirokchi uning hayoti, faoliyati va ijodiga doir batafsil ma’lumot berishi talab qilinadi.	5 daqiqa	10 ball
3.	She’riyat bilimdoni	Bu shartda 10 ta konvertdan birini tanlaydi. Ishtirokchi tanlagan konvertda oldindan ishtirokchilarga taqdim qilingan ijodkorlarning g‘azal yoki she’ridan parcha berilgan. Ishtirokchi berilgan g‘azal yoki she’rni to‘liq yoddan aytib berishi lozim. She’r yoki g‘azal 12 qatordan kam bo‘imasligi kerak.	5 daqiqa	10 ball
4.	Erkin mavzu	Ishtirokchi o‘zi xohlagan mavzuda she’r, g‘azal, monolog, qo‘sish, raqs ijro etishi mumkin.	5 daqiqa	10 ball

### Izoh:

- har bir ishtirokchi uchun ajratilgan vaqt 15 daqiqa;
- berilgan vaqtga qat’iy rioxaya qilinishi shart;
- sahna madaniyati va tartib intizomga rioxaya qilmagan ishtirokchining balli qisqartiriladi;
- ishtirokchilarning ballari teng bo‘lib qolganda qo’shimcha konvert tanlab berilgan shartga teng ballni qo‘lgaga kiritgan ishtirokchilarning javob berishlari talab qilinadi.

### VI. Tanlov majburiyatları:

- Tanlovnı o‘tkazish bo‘yicha joylarda maxsus ishchi guruhsalar tuziladi va ushbu guruhsalar tanlov o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi;
- g‘oliblarni aniqlash, ularni taqdirlash hamkorlik dasturi bo‘yicha mas’ul bo‘lgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi;
- ko‘rik-tanlov markaziy va mahalliy matbuot hamda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boriladi.

### VII. Apellyatsiya berish tartibi:

- ko‘rik-tanlov yakuni bo‘yicha hakamlar xay’ati xulosasidan norozi bo‘lgan ishtirokchilar 2 soat ichida tanlovnı o‘tkazish bo‘yicha Ishchi guruha apellyatsiya berish huquqiga ega;
- tanlovnı o‘tkazish bilan bog‘liq shikoyat va arizalarni ko‘rib chiqish uchun Ishchi guruha qarori bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi;
- apellyatsiya komissiyasining shaxsiy tarkibi va ish reglamenti Ishchi guruha tomonidan belgilanadi;
- apellyatsiya komissiyasi qabul qilingan arizani uch ish kuni mobaynida ko‘rib chiqishi va arizachining hozirligida asoslantirilgan qaror qabul qilishi lozim.

## **VIII. Taqdirlash:**

Saralash bosqichi g'oliblari tizim tasarrufidagi boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlarining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Yakuniy bosqichda shartlar bo'yicha eng ko'p ball to'plagan ishtirokchilar o'rtasida 1 nafar 1-o'rin, 1 nafar 2-o'rin hamda 1 nafar 3-o'rin sohiblari aniqlanadi. 1-o'rin sohibi "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining "Zukko kitobxon-2022" I darajali diplomi, statuetka, ramziy chek va O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

2-o'rin sohibi "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining "Zukko kitobxon-2022" II darajali diplomi, statuetka, ramziy chek va O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

3-o'rin sohibi "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining "Zukko kitobxon-2022" III darajali diplomi, statuetka, ramziy chek va O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, qolgan ishtirokchilar ham faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

## КЕЛИШУВ ВАРАҚАСИ

30. 03. 2022

№





138-4

Ёшлар ўртасида китобхонлик маданиятини ошириш бўйича

Тарқатилади: “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ тасарруфидаги барча  
бошқарма, корхона, ташкилот ва муассасаларга

Киритди: “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ етакчилар Кенгаши

Келишилган:

НЗК   
НС   
СЛМ   
НН   
НФ   
НОК   
УДН   
НЮ 

РК 